



CHET TILLARINI O'RGANISHNING FOYDALARI

Jumanazarova Asaljon Tohir qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti. Pedagogika va filologiya fakulteti "O'zbek va xorijiy tillar"
2-kurs talabasi jumanazarovaasal389@gmail.com

Annotatsiya: XXI asrda tillarni o'rganish biz uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Moliyaviy yoki ijtimoiy jihatdan qat'iy nazar chet tillarni o'rganish uchun hozirgi kunda yoshlar uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Sun'iy intellekt odamlar bilan "haqiqiy" aloqa qilishimizga va ularni tushunishimizga yordam beradi. Hozirgi kunda dunyo tobora globallashtirib borayotganda ikki yoki undan ortiq tillarni bilish, shunchalki insonlar uchun oddiy qiziqish emas albatta bu zamon talabiga aylanmoqda. Yoshlar orasida ko'p tillarni bilish va ushbu tillar bilan muloqot qilish osonlashdi. Xorijiy tillarni o'rganish bilan birga inson madaniyati va intellektual ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omili sifatida baholanadi. Maqolada chet tillarni o'rganish foydalari, ilmiy izlanishlar, chet til o'rganish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni osonlik bilan yengish strategiyalari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Chet tillarini o'rganish, sun'iy intellekt muloqot, intellektual rivojlanish, tillarni o'rganishdagi qiyinchiliklar, madaniyatlararo muloqot.

Abstract: In the 21st century, learning foreign languages is opening the door to great opportunities for us. Today, regardless of financial or social background, various opportunities are being created for young people to learn foreign languages. Artificial intelligence helps us communicate with people in a more "real" way and understand them better. As the world becomes increasingly globalized, knowing two or more languages is no longer just a personal interest, but a requirement of the modern era. Among young people, learning multiple languages and communicating through them has become much easier. Learning foreign languages is also considered an important factor in developing a person's cultural awareness and intellectual skills. This article discusses the benefits of learning foreign languages, scientific research in this field, challenges that arise in the language learning process, and effective strategies to overcome them.

Keywords: Foreign language learning, artificial intelligence in communication, intellectual development, challenges in language learning, intercultural communication.

Аннотация: В XXI веке изучение иностранных языков открывает перед нами большие возможности. В настоящее время для молодежи создаются условия для изучения иностранных языков независимо от финансового или социального положения. Искусственный интеллект помогает нам устанавливать более «реальное» общение с людьми и лучше понимать их. В условиях стремительной глобализации мира знание двух и более языков становится не просто личным интересом, а требованием современности. Среди молодежи стало легче изучать несколько языков и общаться на них. Изучение иностранных языков также рассматривается как важный фактор развития культурного уровня и интеллектуальных навыков человека. В статье рассматриваются преимущества изучения иностранных языков, научные исследования в этой



области, трудности, возникающие в процессе изучения языка, а также эффективные стратегии их преодоления.

Ключевые слова: *изучение иностранных языков, искусственный интеллект в коммуникации, интеллектуальное развитие, трудности в изучении языков, межкультурная коммуникация.*

KIRISH

XXI asr globallashuv davri sifatida inson hayotida xorijiy tillarni o'rganish uchun katta imkoniyatlar va moliyaviy jixatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. Hozirgi davrda dunyodagi tillarning soni taxminan 7100 tirik til mavjud. Bu tillar odamlar tomonidan hanuzgacha faol ravishda gapiriladi va ro'yxatga olingan.

Bu ro'yxat Ethnologue (Languages of the World) deb nomlanadi ushbu ro'yxatda: dunyodagi barcha tirik tillar, ularning gapiruvchilar soni va qayerda ishlatilishi keltiriladi.

Xorijiy tillarni o'rganish ular bilan muloqot qilish bugungi kunga global muommolardan biri hisoblanib nafaqat yoshlar balki kattalar orasida ham chet tillarni o'rganish yetakchiligi bor. Chet tillari faqat muloqot qilish uchun emas bugungi kunda boshqa kasb egalari uchun zarur hisoblanadi. Masalan biznes sohasiya ishlaydiganlarni misol qilib olaylik, uklar uchun tillar katta bizneslarni yaratishda va ularni yanada rivojlantirishda katta ro'l o'ynaydi. Biznes spohasidagi inson uchun o'zini biznesini saqlab qo'lish juda ham muhim.

Agar biznesmen chet ellik mijozlarini psixologiyasi va tilini yaxshi tushuna olsa o'zi qo'ygan maqsadiga erisha oladi va kompaniyasini chet ellik vaqillar bilan katta shartnoma tuzadi va til boyligi kuchliligi bilan ustunlik qiladi. Inson hayoti uchun til bo'yiligi katta ro'l o'ynaydi sababi ko'pgina ma'lumotlar chet tilda bo'lib ularni tushunish va o'zlashtirish oson bo'ladi.

Chet tillarini o'rganish nafaqat aloqador til egalarining madaniyati va an'analari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi, balki insonning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chet tili bilish inson miyasining fikrlash tezligini oshiradi, kreativlikni kuchaytiradi va analitik qobiliyatlarni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, chet tillarini o'zlashtirish shaxsni boshqa tillardagi boy ilmiy va badiiy manbalar bilan tanishtiradi, natijada uning intellektual salohiyati yanada kengayadi.

Dunyo miqyosidagi yirik ilmiy tadqiqotlar, yangi texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarning aksariyati chet tillarida amalga oshirilmoqda. Ilmiy maqolalar, texnik hujjatlar va darsliklarning yetakchi qismi ingliz, nemis, fransuz yoki xitoy tillarida yaratiladi. Shu sababli, chet tilini bilish zamonaviy ilm-fan olamiga yo'l ochadi, ilmiy hamkorlikni rivojlantiradi va yangi yutuqlarni milliy iqtisodiyotlarga integratsiya qilish imkonini beradi.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida chet tillarini bilish karyera muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biriga aylangan. Agar biz chet tillari bilan muloqot qila olsak sayohatimiz ham o'zimiz uchun foydali va arzonlashadi. Turli davlatga bo'rganimmizda o'sha davlatning tili bilish bizga juda katta foyda beradi.



Dunyoning turli davlatlariga sayohat qiladigan insonlar uchun o'sha xalqning ma'daniyati, urf odatlari va turmush tarziga qiziqadiganlar uchun chet tili o'rganish asqotadi. Siz o'sha davlatning aholasi bilan be'malol gaplasha olasiz va mahalliy kishilardan so'rab o'zingizga kerakli joylarni osonlik bilan topasiz. Agar siz chet tilini biladigan insondan (git) foydalansangiz bu sizga ortiqcha xarajat bo'ladi. Xorijiy tillarni bilish bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda turli malakatlardan yangi do'stlar orttirishingiz mumkin bu sizning til suhbatingizda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Chet tillarini o'rganish nafaqat insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, balki ularni boshqa madaniyatlarni anglash va hurmat qilishga undaydi. Bu esa dunyoqarashni kengaytirish, milliy manfaatlarni xalqaro miqyosda himoya qilish va yangi diplomatik aloqalarni mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunos olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki qo'shimcha til o'rganish shaxsning intellektual qobiliyatlarini kengaytirishda asosiy rol o'ynaydi. 2023-yilda o'tkazilgan "Cambridge Language Survey" tadqiqotida ishtirokchilarning 72%i chet tillarini o'rganish orqali dunyoqarashlari kengayganini aytishgan, 67% esa bu jarayon mantiqiy fikrlash va kreativlik darajasini oshirganini tasdiqlagan. Ayniqsa ikkinchi tilni o'rganganlar ishchi xotira, multitasking (bir nechta vazifani bir vaqtda bajarish) va bajaruvchi funksiyalarda monolingvallashganlarga nisbatan yaxshiroq natijalar ko'rsatadi. Bu miyadagi neyroplastiklikka bog'liqdir.

Ko'p tilni bilgan odamlarda Altsgeymer kasalligi belgilari boshqalarga qaraganda taxminan 4-5 yil kechroq paydo bo'lishi aniqlangan. Biroq barcha tadqiqotlar natijasi bir xil emas - ayrimlar topilmadi yoki kichikroq farqlarni qayd etdi. Bu tadqiqot metodologiyasiga va bemor profillariga bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu dalillar shaxsiy rivojlanish va chet tillarini o'rganish o'rtasidagi mustahkam bog'liqlikni ko'rsatadi. Xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etuvchi talabalar orasida chet tillarini bilish muvaffaqiyat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. 2021-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish to'g'risida"gi Farmon ushbu yo'nalishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Mazkur hujjat asosida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi: Maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab xorijiy tillar, xususan ingliz va koreys tiillari bosqichma-bosqich o'rgatilmoqda. Umumta'lim maktablarida xorijiy tillar darslari uchun zamonaviy o'quv-uslubiy komplekslar va innovatsion resurslar yaratildi. Pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha xalqaro darajadagi treninglar, sertifikatlashtirish tizimlari va chet elda malaka oshirish imkoniyatlari yo'lga qo'yildi.

O'quvchilar va talabalar uchun IELTS, TOEFL xalqaro hamda milliy CEFR imtihon tizimlariga tayyorlov kurslari joriy qilindi. Shuningdek, 2022-yildan boshlab "Ingliz tilini bilish darajasini baholash milliy tizimi" ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu tizim orqali o'qituvchilarning til bilimini mustahkamlash, rag'batlantirish, hamda ular orasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish imkoniyati yaratildi.

Oliy ta'lim muassasalarida esa xorijiy tillarda o'qitiladigan yo'nalishlar soni tobora ortib bormoqda. Xususan, ba'zi universitetlarda xalqaro dasturlar asosida ingliz, rus, koreys va xitoy tillarida darslar olib borilmoqda.



Bu esa nafaqat talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning kasbiy tayyorgarligini ham xalqaro standartlarga moslashtiradi. Yana bir muhim jihat shundaki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida faoliyat olib borayotgan Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifatli va samarali til o'rgatish strategiyalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanmoqda.

Agentlik tashabbusi bilan o'quvchilar va yoshlar o'rtasida ko'plab tanlovlar, olimpiadalar va chempionatlar tashkil etilib, til o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchaytirilmoqda. Zamonaviy jamiyat shiddat bilan o'zgarib, taraqqiyot har bir sohaga chuqur kirib bormoqda.

Axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, biotexnologiya, zamonaviy tibbiyot, muhandislik va boshqa strategik sohalarda yetakchilik qilish uchun insondan nafaqat puxta kasbiy bilim, balki xorijiy tillarni chuqur bilish talab etiladi.

Asosiy qism: Hozirgi kunga kelib chet tillarni o'rganish va uni ommoldiga o'rgatish globallashtirish jarayonida muhim vosita sifatida qaraladi. Xalqlar orasidagi xalqaro savdo, ilm-fan, madaniyat va siyosatning barcha sohalarida ko'p tilli kommunikatsiya zarur. Agar chet tilini bilsangiz, yangi bilimlarni o'z vaqtida o'rganish va o'zsohangizda oldinda bo'lish imkoniga ega bo'lasiz.

Uchinchidan esa, sayohat qilish va yangimadaniyatlarni o'rganishdir. Chet tilini bilish sayohatlarni osonlashtiradi. Yangi joylarga borganingizda mahalliy aholi bilan bemalol muloqot qilishingiz, ularning madaniyati va urf-odatlarini chuqurroq o'rganishingiz mumkin.

Ilm-fan va texnologiyadan xabardor bo'lish imkoniyati jihatidan qaralgandako'plab ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va texnologik yangiliklar asosan, ingliz yoki boshqa xalqarotillarda nashr etiladi.

Xorijiy tillarni bilish orqali yuqorimaoshli ish o'rinlariga ega bo'lish, chet elda ta'lim olish yoki biznes yuritish imkoniyati oshadi.

Bugungi globallashtirish borayotgan davrda chet tillarni o'rganish zamon talabiga aylanmoqda.

Buning natijasida ko'plab yoshlarga xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoq yanada ortmoqda. Ilgari chet tilini bilish qo'shimcha bilim sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda u har bir inson uchun zaruratga aylangan. Xalqaro biznes, ta'lim, texnologiya va ilm-fan sohalaridamuvaffaqiyatga erishish uchun kamida bitta xorijiy tilni bilish talab qilinadi. Hozirgi kundamehnat migrasiyasi tabiiy jarayon hisoblanadi.

Xalqaro Mehnat tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, hozirda dunyoda 170 milliondan ortiq mehnat migrantlari bor. Xorijiy tillarni bilmagani tufayli migrantlarning asosiy qismi Rossiya va Qozog'istonda faoliyat olib bormoqda.

Tilni yetarlicadarajada bilmaslik va yetarli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmaslik natijasida ko'p fuqarolarimizushbu davlatlarda malaka talab tilmaydigan ishlarda mehnat qilyotgani sir emas, albatta.

Shuboisdan chet tillarni o'rganishning har tomonlama biz uchun afzalliklarga ega ekanligini anglashimiz darkor. Masalan, ingliz tili hozirda dunyo miqyosida xalqaro til sifatida qabulqilingan bo'lib, ko'plab kasb va sohalarda asosiy muloqot vositasi hisoblanadi.



Shuningdek, xitoy, nemis, fransuz, rus, arab va ispan tillari ham ko'plab davlatlarda muhim o'rin

tutadi. Bundan tashqari, chet tillarni bilishning bir qancha arziqli foydalari ham mavjud. Davlatimiz prezidenti: "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi.

Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib o'yg'an ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart.

Chunki kundan kunga chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tiborkuchaytirilib "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarini o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonun ham qabul qilingan va qonunda quyidagi jihatlar alohida e'tibor qaratilgan: o'rganish uchun zarur sharoitlarni yaratish, xalqaro tajriba asosida ta'lim tizimini takomillashtirish, bozor ehtiyojlari asoslangan til o'qitish, uzviy ta'lim zanjirini yo'lga qo'yish, til o'rganish uchun interaktiv kontent yaratish, tarjimonlik faoliyatini rivojlantirish, monitoring va tahlil ishlari.

Bunga qo'shimcha tarzda xorijiy tillarda yuqori ko'rsatkichli (C1) sertifikatiga ega yoshlar 3-4 kurs talabasi bo'lishiga qaramasdan umumta'lim maktablarida ishlash imkoniyatiga, IELTS 7+ natijada erishgan yoshlar imtihon xarakatlarini qaytarib olish huquqiga ham ega bo'lishgan. Bularning hammasi biz yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar va imkoniyatlarning hali boshlanishi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarni joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida 2013/2014 o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha hududlarda chet tillarni, asosan ingliz tilini o'rganish umum ta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida ikkinchi sinfdan boshlab esa alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan boshlanadi. Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir necha yo'nalishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda.

O'zbekistonning ochiqlik siyosati, turizmni rivojlantirish, dunyo bozoriga shahdam qadam-la faol kirib borishi, barcha sohalarida hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni o'rganishga katta ehtiyoj tug'diradi. Hozirda yurtimizda 25 ta oliy ta'lim dargohida chet tillarini o'qitish joriy qilindi. 2016- yilda atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikatini olgan bitiruvchi o'quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshdi. Joriy yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli xorijiy universitetlarda o'qishi uchun stipendiyalar ajratildi. Bu o'tgan yillarga nisbatan 5 barobar ko'pdir. Madaniyatlararo muloqotda, ayniqsa diplomatiya, xalqaro munosabatlar va xalqaro tashkilotlar faoliyatida chet tillarining o'rni beqiyosdir. Tushunish va o'zaro hurmatga asoslangan xalqaro aloqalarni o'rnatishda chet tillari muhim ahamiyatga ega.



Chet tillarini bilish turizm sohasida katta afzalliklarga ega. Xorijga sayohat qilishda va turizmni rivojlantirishda chet tillarining ahamiyati beqiyosdir. Sayohat qiluvchi shaxslar chet tillarini bilish orqali o'zlarining madaniyatni tushunishlarini oshirib, xalqaro sayohatlar orqali kengroq tajriba orttiradilar.

Shuningdek, chet tili biluvchilar turistlar bilan samarali muloqot qila oladilar, bu esa turizm sohasini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Chet tillari jamiyatda ijtimoiy integratsiya va adolatni ta'minlashda muhim omil sifatida ishlatiladi. Ko'p tilli jamiyatlarda, masalan, ko'chib kelgan migrantlar uchun chet tilini bilish muhim shartga aylangan. Chet tillari orqali ular o'z huquqlarini tushunib, ijtimoiy tizimga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, chet tillari, jamiyatda tenglik va adolatni ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

Chet tillari xalqaro yordam va xayriya loyihalarida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bunday loyihalar ko'pincha rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshiriladi, va chet tillari orqali turli davlatlar o'rtasida samarali aloqalar o'rnatiladi.

Chet tillari yordamida dunyoning turli burchaklaridagi odamlar bir-birlariga yordam bera olishadi, bu esa global miqyosdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Chet tillarini bilgan shaxslar, xalqaro maydonda samarali muloqot qilib, xalqaro tashkilotlarda, diplomatik misyonlarda va global siyosiy masalalarda faol ishtirok etishlari mumkin.

Chet tili, madaniyatlararo muloqotning poydevorini mustahkamlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi, shu bilan birga xalqaro nizolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi.

Chet tillarining bilinishining ortishi dunyo bo'ylab o'zaro tushunishni kengaytiradi va global muammolarni yechishda samarali hamkorlikka olib keladi.

Chet tillarini bilish iqtisodiy rivojlanishda mustahkam poydevor yaratadi. Global iqtisodiyotda ko'p tilli mutaxassislar eng yuqori daromadlarni olishadi, chunki xalqaro savdo va bozorlar bilan ishlashda ko'p tilli kommunikatsiya talab etiladi.

Xalqaro kompaniyalar o'z xodimlaridan chet tillarini bilishni talab qilishadi, chunki bu ularning raqobatbardoshlikni oshiradi va kompaniyaning global bozorlarda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Chet tillari o'zaro savdo va investitsiya almashinuvi uchun mustahkam zamin yaratadi, bu esa davlatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ko'p tilli bo'lish, yangi ish imkoniyatlarini yaratadi, mehnat bozorining diversifikatsiyasi va ilg'or texnologiyalarni tezroq o'zlashtirishga imkon beradi.

Chet tillari ilm-fan va madaniyatlararo aloqalar sohasida katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va yangi texnologiyalar aksariyat hollarda chet tillarida, xususan, ingliz tilida mavjud bo'ladi. Chet tili bilimlari ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va xalqaro konferensiyalar, tadqiqotlar va ilmiy almashinuvda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Chet tillarini o'rganish shaxsga nafaqat yangi bilimlar olishni, balki dunyo bo'ylab bilim almashish va yangi ilmiy yangiliklarni o'zlashtirish imkonini beradi. Chet tillarini o'rganish kelajakda ham global rivojlanishning ajralmas qismiga aylanadi.



Dunyo iqtisodiyoti va jamiyatlari tobora ko'proq o'zaro bog'lanib bormoqda, shuning uchun chet tillari nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat uchun, balki butun dunyo hamjamiyatining kelajakdagi rivojlanishi uchun ham zarur vosita bo'ladi.

Xalqaro siyosat va iqtisodiyotning yanada murakkablashishi chet tillarini o'rganishni yanada muhimroq qiladi. Shuningdek, chet tillari jamiyatda tenglikni ta'minlash va barcha a'zolari global hamjamiyatga integratsiyalashga yordam beradi. Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, respublika bo'yicha ta'lim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilni (ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab, fors) ommalashtirish vazifasi belgilangan.

Chet tillarni sifatli o'rgatish uchun xorijiy ta'lim muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy til sohiblarini (native speakers) o'quv jarayoniga jalb etish, xorijda malaka oshirish va stajirovkalar ulushini oshirish kabi vazifalar qo'yilgan. 2023/2024-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablariga 500 nafar til egasi jalb etilib, til muhiti yaratilgan bo'lsa, ushbu tajriba joriy yilda ham davom etmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida yuqoridagi vazifalar maqsadli ko'rsatkichlar sifatida belgilab berilgan.

Unga ko'ra, birgina O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida o'quv yili davomida imzolangan memorandum va shartnomalar soni 103 tadan 157 taga oshdi. Universitetning xorijga yuborilgan professor-o'qituvchilari soni 192 nafar, talabalar soni esa 200 nafardan oshdi. Xorijlik o'qituvchilar 23 nafardan 55 nafarga ortgan bo'lsa, xorijiy talabalar soni 74 nafardan 171 nafarga yetkazildi. Bugun til o'rganishga sarmoya kiritish, kelajakda ko'plab imkoniyatlarni yaratadi va xalqaro hamkorlikda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur shartlarni yaratadi. Chet tillarini o'rganish jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shadigan, barqaror va farovon kelajakni qurishda muhim omil bo'lib qoladi.

NATIJALAR

Har bir til o'ziga xos jihati bilan boshqalaridan ajralib turadi. Xuddi bizning tilda bo'lgani kabi boshqa tillar ham o'zida xalq-ning o'tmishini aks ettiradi. Til o'rganishning afzalliklarini uni mukammal o'zlashtirmaguningizcha bilolmaysiz. Xorijiy tilni o'rganish asnosida o'sha xalq-ning turmush tarzi, mentaliteti, dunyoqarashi bilan yaqindan tanishasiz. Bu til o'rganishni boshlagan ilk kunlaringizdanoq sezilmaydi, ammo uni yaxshi va mukammal egallaganingiz sari hayot yanada yorqin va rang-barang ekanligiga amin bo'lasiz.

Zamonaviy psixologiya fani chet tilini o'rganish inson xarakterini ham qisman o'zgartiradi, degan fikrni ilgari surmoqda. Ko'pchilik bitta xorijiy tilni bilgani sababli kerakli ma'lumotlarni internetdan asosan shu tilda izlaydi. Ammo ingliz va yana bir nechta tilni bilganlar undan yuz chandon ortiq bilimga ega bo'lishi turgan gap, boisi ular uchun ilk manbalar soni bir necha o'n barobarga ko'payadi-da. Qabrgacha ilm izlang, deya murojaat qilinadi hadisda.

Britaniyalik olimlarning aniqlashicha, ikkinchi tilni o'rganish miya-ning nutqiy ravonlikni ta'minlovchi qismini rivojlantiradi. Til o'rganishga qancha erta kirishsangiz, ravon va chiroyli gapirishingiz ham shuncha yaxshilanadi.



Xorijiy tilni o'rganishdan hayiqib, «menga shu til kerak bo'larmikan?» deb o'ziga savol beruvchilar, shubhalarangiz bekorligiga ishonavering. Zamonaviy dunyoda xorijiy til suv bilan havodek zarur.

Kadrlarni xalqaro talablarga javob beradigan qilib tayyorlashni ko'zlayotgan oliy o'quv yurtlari soni yildan-yilga ko'paymoqda. Ammo kamdan-kam institut va universitetlar talabalarning xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishlari uchun yetarli sharoit yaratib beradi. Shu sabab o'zingizga mos o'quv kursini toping. Sertifikat, tavsiyanoma olish, kursning bahosiga bilimlaringiz ham hamohang bo'lishi kerak. Agar tilni yaxshi o'rganmoqchi bo'lsangiz, bozor qonuniyatini nazarda tuting: yaxshi mahsulot arzon bo'lmaydi. Unutmangki, o'z kasbiga jiddiy yondashuvchi har qanday tashkilot yosh mutaxassislarning til bilish qobiliyatini e'tiborsiz qoldirmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til millatlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'tovchi vosita, undan qo'rqmay «xatlab» o'tganlar bir yo'la yutuq va "yangi olam"-lar kalitini ham qo'lga kiritadi. Eng muhimi, savollaringiz javobsiz qolib ketmaydi. O'zbekiston bugun barcha uchun ochiq davlat sifatida ko'plab xorijiy investorlar, chet el korxonalari kirib kelishiga zamin yaratib, ishbilarmonlik o'chog'iga aylanmoqda.

Xalqaro hamkorlik natijasida katta investitsiyalar jalb etilmoqda, yoshlar xorijda ta'lim olishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda, rivojlangan mamlakatlar ilg'or tajribalari yurtimizga olib kirilmoqda. Bunday davrda farzandlarimizning til bilishi, xorijliklar bilan tengma-teng muloqot qila olishi, turli tillardan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan xorijiy tillarga tarjima qilishi biz uchun o'ta muhimdir.

Ta'lim tashkilotlarida, o'quv kurslarida ham chet tili deganda aksariyat holatda ingliz tili o'qitilishi kuzatiladi. Ammo bugungi kunda 10 mingdan ortiq maktabda ingliz tili, 901 ta maktabda nemis tili, 581 ta maktabda fransuz tili va 47 ta maktabda boshqa chet tillar o'qitilmoqda. Shuningdek, 354 ta maktabda ikkinchi chet tili — fransuz, nemis, koreys, yapon, ingliz, xitoy tillari o'qitilishi boshlangan.

Ushbu maktablarning 10-sinfida tahsil olayotgan 16 ming 166 o'quvchiga 418 o'qituvchi turli chet tillardan dars bermoqda. Shuningdek, 23 ta davlat oliy ta'lim muassasasida filologiya va tillarni o'qitish, tarjima nazariyasi va amaliyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida ingliz, fransuz, nemis, arab, ispan, koreys, xitoy, yapon, italyan, turk, rus, fors, sharq tillari, qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik, sinxron tarjima bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha yaratilayotgan zarur sharoitlardan unumli foydalanayotgan yoshlar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni yanada xorij tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda rag'batlantirish maqsadida "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovining tuman (shahar) hamda viloyat bosqichlari tashkil etilib 35 ming nafardan ortiq o'quvchilar qamrab olindi.

Mazkur tanlovning tuman (shahar) bosqichi g'oliblari 1-o'rin uchun – 100 million so'm, 2-o'rin uchun – 75 million so'm, 3-o'rin uchun – 50 million so'm miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanishi esa bilimli yoshlarimizni rag'batlantirishning yaqqol na'munasidir. Xorijiy tilni bilish hayotda o'z o'rnini topishda asosiy shartga aylanib ulgurdi.



Ona tilingizdan tashqari kamida bitta xorijiy tilni bilmas ekansiz, jahon bo'ylab yuqori daromadli ish o'rniga ega bo'lish, tajriba almashish, bilimlarni oshirish haqida o'ylamasangiz ham bo'ladi. Umuman olganda, chet tili o'rganishni ommalashtirish bugungi ta'lim tizimidagi ustuvor maqsadlardan biriga aylandi. Buning samarasi esa hozir butun mamlakat bo'ylab yoshlar orasida til o'rganishga bo'lgan qiziqishning keskin ortib ketganida yaqqol yuzaga chiqdi. Ta'lim sohasidagi bu sa'y-harakatlar xorijiy tillarda tahsil olish va o'qitishda duch keladigan har qanday masalalarni hal etib, dunyo miqyosida vatanimiz ravnaqini ko'rsata oladigan ilm-fan, ta'lim va taraqqiyot nufuzini ko'tarishga o'zining salmoqli hissasini qo'shadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o'rganish uchun olib borilayotgan islohotlar va qulayliklar barchasi hozirgi yoshlarimiz uchun imkoniyatlar eshigini ochilishi deb bimalol aytishimiz mumkin. Bunday imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalangan holda chet tillarini mukammal o'rganib yurtimiz kelajagi, iqboli uchun o'z hissamizni qo'shishimiz va albatta hayotimizni yanada osonlashtirish uchun o'z bilimimizga tayangan holda ixtiro, kashfiyotlar qilishimiz zarur. Yangi til o'rganish majburiyat emas, sevimli mashg'ulot yoki hobbii sifatida qaralsa, uni o'rganish shunchalik osonlashadi. Bu jarayonga qanchalik moslashish yoki qiziqarli muhitni yaratish ko'pincha o'quvchining o'ziga bog'liq, va bizga yaratilayotgan imkoniyatlardan keng ko'lamda foydalanib O'zbekiston yoshlarini dunyoga tanitishimiz bizning maqsad va burchimizga aylanishi lozim. Zero, chet tilini o'rganish - davr talabi.

REFERENCES:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: www.edu.uz
- 2.Custodio, B. and M. Sutton. 1998. "Literature-Based EL for Secondary School Students" in TESOL Journal. Vol 7, No.5, p.p: 19-23.
- 3.Hayitov H. A. Qushlarga ibrat-hazrati xizr! //Интернаука. – 2020. – No. 12-3. – С. 72-73.
- 4.O'.Hoshimov, I. Yoqubov. "INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI" (o'auv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashrivoti. 2003
- 5.Educational and Social Research ISSN: 2992-894X <http://journals.proindex.uz> 201
- 6.O'zbekistonda chet tillarini o'qitish bo'yicha tizim